

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

**7-SINF MATERIALAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI FANIDAN AMALIY
DARSLARDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH**

**7 КЛАСС ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРАКТИЧЕСКИХ
ЗАНЯТИЯХ ПО ЕСТЕСТВЕННОЙ ГЕОГРАФИИ МАТЕРИКОВ И ОКЕАНОВ**

**GRADE 7 THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN PRACTICAL CLASSES ON THE
NATURAL GEOGRAPHY OF CONTINENTS AND OCEANS**

Isayev Akbarjon Abdulhamidovich¹, Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li²

¹Isayev Akbarjon Abdulhamidovich

– Andijon davlat universiteti, dotsent, g.f.n,

²Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li

– Andijon davlat universiteti, tabiiy fanlar
fakulteti geografiya yo'nalishi 3-kurs talabasi.

Annotatsiya

Interfaol metodlar – bu o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga zamon talabidan kelib chiqqan holda ta'lim berish usullaridir. Ushbu maqolamizda 7-sinf Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasining amaliy mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha bir qancha metod(nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o'quvchilar ongini shakllantirishga, muammoli vaziyatlarni yechishga doir)lar berilgan. Ushbu metodlar qo'llanishi natijasida maktab o'quvchilarining ham nazariy, ham amaliy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Аннотация

Интерактивные методы – это методы, используемые учителем для обучения учащихся в соответствии с требованиями времени. В нашей статье представлен ряд методик(касающихся закрепления теоретических знаний, формирования сознания учащихся, решения проблемных ситуаций)по использованию интерактивных методов на практических занятиях по естественной географии материков и океанов в 7 классе. Эти методы служат для закрепления как теоретических, так и практических знаний школьников в результате их применения.

Abstract

Interactive methods are methods used by a teacher to teach students in accordance with the requirements of the time. Our article presents a number of methods (concerning the consolidation of theoretical knowledge, the formation of students' consciousness, solving problem situations)on the use of interactive methods in practical classes on the natural geography of continents and oceans in the 7th grade. These methods serve to consolidate both theoretical and practical knowledge of schoolchildren as a result of their application.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, nazariy bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilar ongini shakllantirishga oid topshiriqlar

Ключевые слова: интерактивные методы, закрепление теоретических знаний, задания на формирование сознания учащихся

Key words: interactive methods, consolidation of theoretical knowledge, tasks for the formation of students' consciousness

KIRISH

“Metod – (yunoncha metodos – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) voqe'likni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt va kuch sarflaydi. Metod o'z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo'lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham voqelikka xos bo'lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. Metodlar haqidagi ta'limot fanda metodologiya deb ataladi”[1]

Maktabdagi o'quv jarayonining sifati juda ham ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari asosiy ahamiyatga egadir.

An'anaviy ta'limda interfaol texnologiyalarning bir usuli yoki ko'pi bilan ikki usulidan foydalaniladi. Masalan, o'qituvchi mavzuni har dars o'quvchiga so'zlab beradi. O'quvchi esa tinglovchi sifatida tinglaydi. Holbuki, bugungi kunga kelib an'anaviy ta'lim o'zini yaxshi oqlamayotganligi ko'rinib turibdi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol

ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. [2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi kunning vazifalarini amalga oshirishda o'qitishning chuqur ijtimoiy e'tiqodlilik bilan uyg'un ilmiyligiga qo'yilayotgan talablar g'oyatda muhimdir.

Pedagogika amaliyotida ba'zan g'alati voqealar ham uchraydi. O'quvchilar qiziquvchanligi sababli o'qituvchiga savol beradilar va xuddi ana shu paytda o'qituvchi asosli javob bera olmaydi. Noto'g'ri javob bersam, keyinchlik obro'yim ketadi, deb o'ylaydi. Masalan, birinchi sinf o'quvchilari o'qituvchidan "Kosmos nima" deb so'raydilar va u sarosimaga tushib qoladi. Darhaqiqat, buni birinchi sinf o'quvchilariga qanday tushuntirish kerak? O'qituvchi puxta o'rganib, ertasiga javob berish o'rniga, shu zahoti "kosmos bizdan juda uzoq narsa" – deb javob qildi. Shunday javobdan keyin o'quvchilarda kosmos haqida qandaydir tasavvur hosil bo'ladimi? [3]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

7-sinf Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiasining amaliy mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha bir qancha metod(nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o'quvchilar ongini shakllantirishga, muammoli vaziyatlarni yechishga doir)lar berilgan. Biz ular bilan quyida tanishib olamiz.

1. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar.

Topshiriq "Xaritadan mobilizm gipotezasini isbotlang."

- O'quvchilardan 4 daqiqa davomida berilgan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini yozish so'raladi.
- Vaqt tugagach, vaqt tugaganligi ma'lum qilinadi. Biroq 1 minut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug'iladi.
- O'quvchilardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to'rt o'quvchi o'z yozganlarini o'qib bergach, o'qituvchi qolgan o'quvchilardan aytilganlariga o'xshamaydigan fikr kimda bo'lishini so'raydi.

2. O'quvchilar ongini shakllantirishga doir amaliy topshiriqlar.

Topshiriq. Berilgan atamalarni izohlang.

- Materik 4. Afrika 7. Ko'l
- Qit'a 5. Okean 8. Daryo
- Yevrosiyo 6. Dengiz 9. Avstraliya

3. Muammoli vaziyatlarni yechishga doir topshiriqlar.

O'quvchilar A nuqtadan 180 azimut bilan 120 m yurishdi. U joyni B nuqta deb belgiladi. B nuqtadan 270 azimut bilan 120 m yurishdi. U joyni D nuqta deb belgilashdi. D nuqtadan 360 azimut bilan yurishdi. U joyni E nuqta deb belgilashdi. O'quvchilar ayinglar-chi, ular o'z joylariga necha gradus azimut bilan yursa yetib olishadi?

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish o'rinliki, 7-sinf Materiklar va okeanlar tabiiy geografiasining amaliy mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha bir qancha metodlar xususan, nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o'quvchilar ongini shakllantirishga, muammoli vaziyatlarni yechishga doir metodlardan foydalanilsa, o'quvchilarda yodda tutish, har xil vaziyatlarda o'z pozitsiyasini egallash, tasvirlash, bilimni mustahkamlash, ijodkorlik kabi bir qator ijobiy xarakterlarni rivojlantiradi. Ushbu metodlar qo'llanishi natijasida maktab o'quvchilarining ham nazariy ham amaliy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T. :2000 y
- <https://savol-javoblar.com/darsliklar/440-interfaol-metodlar.html> - interfaol metodlar internet sayti.
- R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Rahmonqulova Pedagogika nazariyasi va tarixi – Toshkent, 2010, 464 bet.
- A.A.Isayev, A.R.Arabboyev. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiasini darslarida o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish// "So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi" respublika ilmiy-uslubiy jurnali 2023 6-son 13-yanvar
- A.A.Isayev, A.R.Arabboyev. Farg'ona iqtisodiy rayoni darsida ta'limni og'zaki metodidan foydalanib tashkil qilish// "PEDAGOGS" international research journal Volume-25, Issue-2, January-2023 ISSN:2181-4027_SJIF:4.995
- A.A.Isayev, A.R.Arabboyev. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiasini kursining dunyo okeani va uning qismlari mavzusida interaktiv metodlardan foydalanish// GERMANY Models and methods for increasing the efficiency of innovative research 11.02.2023